

TASHQI ALOQALARDA DIPLOMATIK VAKIL

Raxmanov Ulug'bek Xabibullayevich

“Qishloq xo'jaligi huquqi va agroturizm” kafedrası mudiri

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Isomiddinov Sanjarbek Axtamovich

Yurisprudensiya ta'lim yo'nalishi talabasi

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

telefon: +998 91-486-52-26,

E-mail: sanjarisomiddinov147@gmail.com

Numonov Mansurbek Nosirjon o'g'li

Yurisprudensiya ta'lim yo'nalishi talabasi

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

telefon: +998 90 786-87-72,

E-mail: numonovmansurbeknosirovich@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada tashqi aloqalarning ahamiyati, O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy prinsiplari, diplomatik vakilni tayinlash va chaqirib olish tartibi haqida so'z borgan. Diplomatik vakilni “persona non grata” deb e'lon qilinishi va buning huquqiy oqibatlari to'g'risida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, konvensiya, komissiya, vakolatxona, vakil, elchi, muxtor, persona non grata, chaqirib olish.

Аннотация: В данной статье говорится о значении внешних связей, основных принципах внешней политики Республики Узбекистан, порядке назначения и отзыва дипломатического представителя. Приведена информация об объявлении дипломатического представителя «персоной нон грата» и правовых последствиях этого.

Ключевые слова: Конституция, конвент, комиссия, представительство, представитель, посол, автономный, persona non grata, отзыв.

Abstract: This article talks about the importance of foreign relations, the main principles of the foreign policy of the Republic of Uzbekistan, the procedure for appointing and recalling a diplomatic representative. Information about the declaration of the diplomatic representative as "persona non grata" and the legal consequences of this was given.

Keywords: Constitution, convention, commission, representation, representative, ambassador, autonomous, persona non grata, recall.

Kirish. Insonlar insonlar bilan aloqa o'rnatmay yashay olmaydi, davlatlar ham xuddi shunday. Davlatning xalqaro maydondagi obro'si uning boshqa davlatlar tomonidan tan olinishi va tashqi aloqalarning holati bilan ham bog'liqdir. Davlatlar o'rtasida aloqalarning mustahkamligi kelajakda ushbu ikki davlatning taqdiriga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tashqi aloqalarning o'rnatilishining asosiy maqsadi ham aslida shu. O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Markaziy Osiyo davlatlari bilan ahil qo'shnichilik va o'zaro manfaatli hamkorlikni mustahkamlash hamda yetakchi xorijiy davlatlar bilan aloqalarni yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha sa'y-harakatlari, shuningdek mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar doirasida milliy manfaatlariga asoslangan tashabbuslarni ilgari surilishi va ularning xalqaro hamjamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi natijasida O'zbekistonning xalqaro maydonda obro'si ortishi bilan birga, mintaqamiz ulkan imkoniyatlarga ega hamkorlik makoniga aylandi.[1] Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkilotining sessiyalarida o'zbek tilida nutq so'zlagani va xalqaro miqyosidagi muammolarni hal etishda faol ishtirok etayotgani buning yaqqol na'munasidir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Tashqi aloqalar ma'lum maqsadlarni ko'zlab va qonunlarga asoslangan holda amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikas Konstitutsiyasining IV bobi "Tashqi siyosatga" bag'ishlangan bo'lib, undagi 17,18-moddalarda tashqi siyosatimizning asosiy prinsiplari o'z aksini topgan. Jumladan, Konstitutsiyamizning 17-moddasida:

"O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyektidir.

O'zbekistonning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning buzilmasligi, davlatlarning hududiy yaxlitligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsiplariga hamda xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa prinsip va normalariga asoslanadi."

- deb, 18-moddasida esa:

"O'zbekiston Respublikasi davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va ko'p tomonlama munosabatlarni har taraflama rivojlantirishga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosatni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi davlatning, xalqning oliy manfaatlaridan, uning farovonligi va xavfsizligidan kelib chiqqan holda ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi hamda ulardan chiqishi mumkin." [2] deb belgilab qo'yilgan.

Shuningdek, xalqaro munosabatlar xalqaro huquq normalariga asosan

olib boriladi. Shuni ham e'tirof etish kerakki, diplomatik huquq juda qadimdan mavjud bo'lib kelgan huquq sohasi bo'lib, ko'proq odat huquqiga asoslangan. Masalan, o'zbek xalq donishmandligida shunday maqol bor: "Elchiga o'lim yo'q". Hozirda ham diplomatik vakillarda daxsizlik huquqi mavjud. Diplomatik aloqalar asoslari, barcha davlatlar amal qilishi kerak bo'lgan qoidalar 1961-yil 18-aprelda qabul qilingan "Diplomatik munosabatlar to'g'risida"gi Vena konvensiyasida aks topgan. O'zbekiston Respublikasi "Diplomatik aloqalar to'g'risida"gi Vena Konvensiyasiga O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1994-yil 6-maydagi 1078-XII-sonli "Diplomatik aloqalar to'g'risida"gi Vena Konvensiyasiga qo'shilish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq qo'shilgan. Ushbu Konvensiya barcha davlatlar tomonidan Birlashgan Millatlar tashkiloti a'zolari yoki ixtisoslashgan muassasalar, xalqaro sud Statutining ishtirokchilari bo'lgan davlatlar, shuningdek Birlashgan Millatlar tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan Konvensiyaning ishtirokchisi bo'lishga taklif qilingan boshqa davlatlar tomonidan imzolanishi uchun ochiq.[3]

Tashqi aloqalarni olib borishda diplomatik vakillarning ham o'rni muhim hisoblanadi. Zero u butun mamlakatning boshqa mamlakatdagi ovozi va yuzidir. Bu masalada 1992-yilda 3-iyulda "O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatiya vakolatxonalari boshliqlarini tayinlash hamda chaqirib olish tartibi to'g'risida"gi 649-XII-son O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilingan.[4] Qonun O'zbekiston Respublikasining diplomatiya vakolatxonalari boshliqlarini tayinlash hamda chaqirib olish tartibini "Diplomatik munosabatlar to'g'risida"gi 1961-yildagi Vena Konvensiyasiga hamda boshqa umume'tirof etilgan xalqaro huquqiy normalar va qoidalarga muvofiq belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ushbu maqolani yozishda muammoviy tahlil, qiyosiy tahlil, og'zaki tarix va badiiy hamda huquqiy yondashuv kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatiya vakolatxonalari boshliqlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari bilan tayinlanadi va chaqirib olinadi. Bu masalalarga doir takliflarni O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining tegishli komiteti (komissiyasi) bilan kelishgan holda kiritadi.[5]

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ma'qullagan diplomatiya vakolatxonasi boshlig'ining nomzodini O'zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri vakolatxona joylashgan mamlakat Tashqi ishlar vazirligiga (yozma) taqdim etib, uning roziligini (agreman) so'raydi.

O'zbekiston Respublikasining diplomatiya vakolatxonasi boshlig'ini tayinlash vakolatxona joylashgan mamlakatning rasmiy roziligi olinganidan keyin amalga oshiriladi.

Vakolatxona joylashgan mamlakatdan javob olinguncha diplomatiya vakolatxonasi boshlig'i lavozimiga nomzod xususidagi ma'lumotlar maxfiy hisoblanadi.

Favqulodda va Muxtor Elchi yoki Favqulodda va Muxtor Vakil tayinlangan mamlakatga jo'nab ketguniga qadar O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi unga boradigan davlatining rahbariga topshirishi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti imzolagan hamda O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri imzosi bilan tasdiqlagan ishonch yorlig'ini tayyorlaydi.

O'zbekiston Respublikasining Ishonchli Vakiliga O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirining mazkur diplomatiya namoyandasini qabul qiluvchi mamlakat Tashqi ishlar vazirligi nomiga yozilgan maktubi beriladi.

O'zbekiston Respublikasining diplomatiya vakolatxonasi boshlig'i quyidagi hollarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan chaqirib olinadi:

- a) diplomatiya vakolatxonasi boshlig'i almashtirilganda;
- b) diplomatiya vakolatxonasi boshlig'i nomatlub shaxs (persona non grata) deb e'lon qilinganda;
- v) davlatlar o'rtasidagi diplomatiya munosabatlari uzilganda;
- g) davlatlar o'rtasida urush holati e'lon qilinganda;
- d) davlat xalqaro huquq subyekti sifatida yo'qolganida.

O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatiya vakolatxonalarining boshqa a'zolari O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirining buyruqlari bilan tayinlanadilar va chaqirib olinadilar.

Yuqorida keltirib o'tilganidek xalqaro huquqda shunday jumla bor "persona non grata" (lotincha: persona non grata — nomatlub shaxs). Persona non grata :

1) biror davlatga diplomatik vakil etib tayinlanishiga o'sha davlat hukumati tomonidan rozilik berilmagan yoki ishonchni yo'qotgan va chaqirib olinishi lozim bo'lgan diplomatik vakil. Persona non grata deb e'lon qilish mazkur diplomat, uning oila a'zosi yoki diplomatik vakillikning boshqa biror xodimini shu mamlakat hududida bundan buyon bo'lishi nomatlub deb topilganligini bildiradi. Bunday qarorga kelish davlat tomonidan o'zining tegishli odamini aytilgan muddatda chaqirib olishni taqozo etadi, agar muayyan muddat belgilanmagan bo'lsa, iloji boricha tezroq chaqirib olish chorasi ko'rilishi kerak. Agar talab bajarilmasa diplomatik vakilni mahalliy

ma'murlar xususiy shaxs deb e'lon qilib, unga oddiy xorijiy fuqaro sifatida munosabatda bo'ladilar;

2) ko'chma ma'noda — xayrixohlik bilan qaralmaydigan odam.[6]

“Persona non grata” deb e'lon qilinish diplomatik vakilni chaqirib olinishi uchun asos bo'ladi. Ushbu jumla ma'lum davlatlarga kirishi taqiqlangan aktyor, jurnalist, qo'shiqchi va boshqalar uchun ham qo'llanadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Tarixdan ma'lumki, juda ko'p bora butun bir davlat taqdirini diplomatik vakillar, elchilar, siyosatchilar yaka o'zi hal qila olgan. Misol uchun, Uinston Cherchil, Teodor Ruzvelt. Demak, mamlakatning xalqaro miqyosdagi obrO'si yakka shaxsga bog'liq bO'lishi mumkin. Boshqa bir davlatda O'zbekiston nomidan faoliyat ko'rsatuvchi, fuqarolarimiz huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini muhofaza qiluvchi inson yuqori tarbiyaviy, axloqiy sifatlar bilan ajralib turmog'i kerak. Zero jahon minbarida xalqimizning erki-irodasini ifoda etmoq juda sharafli vazifadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. www.uza.uz O'zbekiston Milliy Axborot Agentligi
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-T.:-"Adolat",2023.-128 b.
3. 1961 yil 18 aprelda qabul qilingan “Diplomatik munosabatlar to'g'risida”gi Vena konvensiyasi
4. www.Lex.uz O'zbekiston Respublikasi qonunlari milliy bazasi
5. 1992 yilda 3 iyulda “O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatiya vakolatxonalarini boshliqlarini tayinlash hamda chaqirib olish tartibi to'g'risida”gi 649-XII-son
6. www.dictionary.cambridge.org